



# MUNDARIJA

Экологические и альтернативные заполнители для бетона в условиях Узбекистана.....	10
<b>Акрамов Хуснитдин Ахрарович, Тохиоров Жалолiddин Очилович, Самадов Хомид Самандарович</b>	
Investitsion marketingni rivojlantirish asosida mintaqa investitsiya jozibadorligini oshirish .....	16
<b>Ahmedov Alim Babaniyozovich</b>	
O'zbekistonda yashil budjetlashtirish, energiya samaradorligi va issiqxona gazlari emissiyasi.....	22
<b>Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Qulliyev Ulug'bek Mirzayevich, Mamanov Alisher</b>	
Development of the Digital Economy as a Trigger of the Economic Growth of the New Uzbekistan.....	28
<b>Luiza Sayfullovna Makhmutkhodjaeva, Umarova Shahnoza Akbarovna</b>	
Oliy o'quv yurtlarida matematik statistikani o'qitishning xususiyatlari.....	34
<b>Shamsiyev Damin Najmiddinovich, Aymatova Farida Xo'razovna</b>	
Turizm tadbirkorlikning o'ziga xos xususiyatlari .....	37
<b>Mardonova Dilafuz Kosimovna</b>	
Oziq-ovqat xavfsizligi ta'minoti: O'zbekistonda mayonez importini notarif tartibga solish va ichki ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollari .....	41
<b>Muratova Shohista Nimatullayevna, Nomozov Azizbek Xayrulla o'g'li</b>	
Mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarni jalb etishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni va roli .....	46
<b>Akramov Azamat Ramziddinovich</b>	
Mamlakatning iqtisodiy va ekologik rivojlanishida elektromobil sanoatini rivojlantirishning ahamiyati .....	53
<b>Iminov Mahmudjon Azimjon o'g'li</b>	
Hududiy eksport salohiyatini oshirishning marketing strategiyasi.....	60
<b>Jiyamuratov Rustam Nuriddinovich</b>	
Turistik kompaniyalar moliyaviy barqarorligini baholash usullarini takomillashtirish kompaniya moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim mezonini.....	65
<b>Jo'rayev Behzod Nuraliyevich</b>	
Iste'molchilarni xulq-atvori modellari asosida marketing strategiyalarini shakillantirish.....	70
<b>Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna</b>	
Hisob siyosati va unda biologik aktivlar hisobini yoritib berish tartibini takomillashtirish .....	75
<b>Mirzayeva Nargiza Batirovna</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalarning o'rni.....	80
<b>Otajonova Charosxon Polvonquli qizi</b>	
Innovatsion menejment va raqamli transformatsiyalarni joriy etishning metodologik asoslari.....	84
<b>Quldoshev Asliddin Tursunovich</b>	
Strategik boshqaruvda xususiy kapital samaradorligini baholash.....	89
<b>Nasriyeva Zebiniso A'zam kizi, Mavliyanova Dilobar Maxkamovna</b>	



Mintaqalarni innovatsion rivojlantirish istiqbollari tashkiliy tuzilmalarini takomillashtirishni boshqarish yo'llari .....	100
<b>Xodjamuratova Gulbaxar Yuldashevna</b>	
Meva-sabzavot eksporti barqarorligini ta'minlashning ekonometrik tahlili .....	105
<b>Shamsiyeva Feruza Muratxodjayevna</b>	
Зарубежный опыт активизации экономической активности домохозяйств.....	111
<b>Бердиев Гайрат Ибрагимович, Маликова Севинч Телман кизи, Люсиков Артемий Александрович</b>	
The Impact of Foreign Direct Investment on Economic Growth: A Case Study of Uzbekistan.....	116
<b>Abdulla Ibragimov, Keldiyorov Shakhriyor Ilyos o'g'li</b>	
Mintaqada sanoat ishlab chiqarish rivojlanishining kambag'allikni qisqartirishdagi ahamiyati .....	121
<b>Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li</b>	
Global iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi mezon va tartiblarini joriy etishdagi muammolar va yechimlar .....	125
<b>Abduvosidova Gulandom Abdurashid qizi</b>	
Amerika Qo'shma Shtatlari tajribasida biznes subyektlarini toifalarga ajratish amaliyotining xususiyatlari .....	131
<b>Akobirova Nodira Najmiddin qizi</b>	
O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'llari.....	135
<b>Axmedova Nafisa Amirddin qizi</b>	
Strategic directions of integration of Uzbekistan into the international hospitality industry .....	140
<b>Bekmurodova Laylo Tursunmamatovna</b>	
Surxondaryo viloyatida parrandachilikni rivojlantirish ko'rsatkichlarini prognozlash va modellashtirish.....	144
<b>Bobomuratov Imomqul Islamovich</b>	
Mamlakatimizda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishning hozirgi holati va uning tahlili.....	149
<b>Talipova Dilfuza Nabiyevna</b>	
Agrar soha korxonalarining moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.....	154
<b>Erkinxojiyev Ismoiljon Ikromjon o'g'li</b>	
Analysis of the Influence of Macroeconomic Indicators on State Budget Tax Revenue .....	158
<b>Meyliev O.R., Gofurova K.</b>	
Mahalliy budjet xarajatlarini hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri.....	166
<b>Hazratqulov Shahboz Boboqul o'g'li</b>	
Influence of Digital Technologies on Economic Growth of the Republic of Uzbekistan.....	170
<b>Igamberdiyeva Kunduz Ergashevna</b>	
Transmilliy kompaniyalarning tashqi bozorlar uchun marketing strategiyalari va marketing tadqiqotlarini o'tkazish amaliyoti.....	174
<b>Jo'rayeva Zilola Turobovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi</b>	
Tijorat banklari tomonidan investitsiya loyihalarini moliyalashni rivojlantirish imkoniyatlari.....	178
<b>Kamilova Iroda Xusnitdinovna</b>	
Korxonalarda inqirozga qarshi moliyaviy boshqaruv tizimini takomillashtirish .....	183
<b>Latipova Shaxnoza Maxmudovna</b>	



Tijorat banklari faoliyatida onlayn tizimlarining tutgan o'рни va ularning rivojlanishi.....	188
<b>Raxmataliyev Muzaffar Eshdavlatoich</b>	
Aholi farovonligini oshirishda tadbirkorlik faoliyatining ta'sirini baholashning nazariy asoslari.....	194
<b>Fayziyeva Dilsuz Bahodirovna</b>	
O'zbekiston Respublikasini "yashil" iqtisodiyotga o'tish samaradorligini oshirish.....	200
<b>Mirzayev Bexruz Abdulla o'g'li</b>	
Andijon viloyatida kambag'allik darajasini qisqarishiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlar .....	214
<b>Musaeva Ziyoda Allayarovna</b>	
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi eksportida marketing muammolari.....	218
<b>Musyeva Shoira Azimovna, Agzamov Avaxxon Talgatovich</b>	
Respublikamizda parranda bosh sonining hozirgi holati va uning istiqbollari.....	223
<b>Akramova Nargiza Axrorovna</b>	
Menejmentda ishbilarmonlik kommunikatsiyalaridan foydalanishda optimal strategiyalarini qo'llash shart-sharoitlari .....	227
<b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Shadiyeva Madina Djaloliddin qizi</b>	
Raqamlashtirish sharoitida innovatsion faoliyatning o'ziga xos xususiyatlari .....	231
<b>Nazarova Latofat Toirjon qizi</b>	
O'zbekistonda masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	235
<b>Nurmuxammedov Matlab Yunusovich</b>	
Davlat aktivlarini samarali boshqarish hamda nazorat qilishni takomillashtirish.....	240
<b>Mirzayev O., Nazarov G'ayrat Olim o'g'li</b>	
Talabalarining oilali bo'lishiga ta'sir etuvchi omillarga iqtisodiy baholashda yangicha yondashuv.....	246
<b>O. U. Shomurodov, Z. U. Uroqov, A. T. Ablahatov, A. A. Suyarov, J. S. Urzov</b>	
Methodological Aspects for Branding in Private Schools.....	251
<b>Odilova Sitora Sayfitdin qizi</b>	
Совершенствование процедуры оценки эффективности и результативности расходов государственного сектора .....	256
<b>Олимов Элёр Фазлиддин угли, Искандаров Суннатилло Бахриддин угли</b>	
Logistika xizmatlari samaradorligini oshirishda blokcheyn texnologiyalardan foydalanish .....	261
<b>Rajabov Orzujon Mamasoliyevich</b>	
Markaziy Osiyoda energetika bozorini rivojlantirishning kelgusi istiqboli va imkoniyatlari.....	267
<b>Saidov Mash'al Samadovich, Umarova Irodaxon Nuraliyevna</b>	
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda sug'urta bozorining innovatsion usullaridan foydalanishning konseptual asoslari .....	275
<b>Narzullayeva Gulchehra Salimovna, Saidova Dilnozaxon Odiljon qizi</b>	
Oliy ta'limda boshqaruv strategiyalari va ularni amalga oshirish mexanizmi.....	279
<b>Saidqulova Furuza Farmonovna</b>	
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromadlarini soliqqa tortishning o'ziga xos xususiyatlari .....	283
<b>Salimov Sherzod Baxtiyorovich</b>	



O'zbekiston Respublikasidagi mavjud suv resurslarining iqtisodiy holati tahlili .....	288
<b>Shanazarova Gulyora Baxtiyarovna</b>	
Tijorat banklari kredit risklarini kamaytirish yo'llari.....	294
<b>Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi</b>	
The use of Intellectual Systems in the Improvement of the Educational Process Management System in Higher Educational Institutions .....	303
<b>Umarova Dilfuza Rakhmatilla qizi</b>	
Oliy ta'lim tizimida yangi iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish.....	307
<b>Xakimov Dilshodjon Rahmonaliyevich</b>	
Global iqtisodiy sharoitida moliyaviy hisobotlar auditida muhimlikni baholashni xalqaro stanadartlar asosida takomillashtirish .....	311
<b>Xasanova Nasiba Tolliboy qizi</b>	
Qurilish materiallari sanoatida innovatsion klasterlarni tashkil etish istiqbollari.....	314
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
Oliy ta'lim muassasalarida gibrud bulut xizmat modelini qo'llash mexanizmini ishlab chiqish .....	319
<b>Zaripov Bahodir Bobomurod o'g'li</b>	
Роль инвестиций в системе железнодорожного транспорта в Республике Узбекистан .....	325
<b>Акбарова Лайло Упашевна</b>	
Gidrotexnik inshootlar betonlarini samaradorligini tahlil qilish va oshirish natijalari .....	330
<b>Asqarov B. A., Karimov M. U., Xolmirzayev S.T.</b>	
Maxsus iqtisodiy zonalar hududiga jalb etilgan investitsiyalar to'g'risida .....	334
<b>Davlayev G'olib Ashurovich</b>	
Yangi xizmat turi xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning metodologiyasi .....	337
<b>Djurayeva Dilnoza Davron qizi</b>	
Mintaqalar innovatsion salohiyatini baholashning uslubiy yondashuvlari.....	343
<b>J. A. Ismatullayev, D. X. O'rinov</b>	
Milliy qayta sug'urtalovchilarning xalqaro sug'urta bozoriga kirib borishi va kutilayotgan xavf-xatarlar.....	348
<b>Jorabayev Jasur Abduraxmanovich</b>	
Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovarlar auditi natijalarini auditorlik hisobotida aks ettirish tartibi .....	354
<b>Ibragimov M. M., Ergashev O. F.</b>	
Turistik destinatsiyalarni tashkil etish va rivojlantirishning xorijiy tajribalari .....	358
<b>Karimov Anvar Aktam o'g'li</b>	
Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer soliqlarini hisoblash va undirish samaradorligini oshirish yo'llari.....	360
<b>Qurbonov Muxiddin Abdullayevich</b>	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional tizimini tadqiq etishga uslubiy yondashuvlar.....	367
<b>Mamatov Axmetjon Atajanovich, Allaberganov Zakir Gayibovich</b>	
Davlatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari .....	373
<b>Mamatov Mamajan Axmadjonovich</b>	



# YANGI XIZMAT TURI XIZMATLAR SOHASINI INNOVATSION BOSHQARISHNING METODOLOGIYASI



**Djurayeva Dilnoza Davron qizi**  
I.f.f.d (Phd), Buxoro Davlat Universiteti

**Annotatsiya:** O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida raqobatdosh innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning yangi turlarini yaratishni tashkil etish va samarali boshqarish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun, mavjud ilmiy-innovatsion salohiyatdan to'liq foydalanish, ilg'or ilm-fan yutuqlari va istiqbolli innovatsion texnologiyalar asosida yangi ishlab chiqarish tuzilmalari va xizmatlar turlarini yaratish zarur. Tahlillarimizga ko'ra, hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan jami 528 mingdan ziyod korxonalarining atiga 0,7 foizi (3900 tasi) o'tgan yili innovatsion mahsulotlar ishlab chiqargan. Yalpi ichki mahsulotning 5,2 foizini innovatsion mahsulotlar tashkil etmoqda. Biroq ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlarning 2,4 foizini yuqori texnologik sanoat ishlab chiqarish tashkil etmoqda. Shu jihatdan, xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda innovatsion xizmat turlarini yaratish konsepsiyasiga asoslangan holda ushbu sohani boshqarish va rivojlantirishga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so'zlar:** Islohot, raqobat, innovatsiya, xizmat, mahsulot, innovatsiya, innovatsion salohiyat, innovatsion xizmat, innovatsion boshqaruv, innovatsion xizmat.

**Abstract:** At the current stage of the reforms implemented in the Republic of Uzbekistan, the organization and effective management of the creation of new types of competitive innovative products and services is becoming one of the priority tasks. Therefore, it is necessary to make full use of the existing scientific and innovative potential, to create new production structures and types of services based on advanced scientific achievements and promising innovative technologies. According to our analysis, only 0.7 percent (3,900) of the total of more than 528,000 enterprises operating today produced innovative products last year. Innovative products make up 5.2 percent of GDP. However, only 2.4% of innovative products are manufactured by high-tech industry. In this regard, it is of urgent importance to develop scientifically based proposals and recommendations for increasing the efficiency of innovative management of the service sector, to theoretically substantiate methodological approaches to the management and development of this sector based on the concept of creating innovative types of services, and to develop practical mechanisms.

**Key words:** Reform, competition, innovation, service, product, innovation, innovation capacity, innovation service, innovation management, innovation service.

**Аннотация:** На современном этапе реализуемых в Республике Узбекистан реформ организация и эффективное управление созданием новых видов конкурентоспособной инновационной продукции и услуг становится одной из приоритетных задач. Поэтому необходимо в полной мере использовать имеющийся научный и инновационный потенциал, создавать новые производственные структуры и виды услуг на основе передовых научных достижений и перспективных инновационных технологий. По нашему анализу, из более чем 528 тысяч действующих сегодня предприятий только 0,7 процента (3900) произвели в прошлом году инновационную продукцию. Инновационная продукция составляет 5,2 процента ВВП. Однако лишь 2,4% инновационной продукции производится высокотехнологичной промышленностью. В связи с этим актуальна разработка научно обоснованных предложений и рекомендаций по повышению эффективности инновационного управления сферой услуг, теоретическое обоснование методических подходов к управлению и развитию данной отрасли на основе концепции создания инновационных видов экономики. услуг и разработать практические механизмы.

**Ключевые слова:** Реформа, конкуренция, инновации, услуга, продукт, инновации, инновационный потенциал, инновационный сервис, инновационный менеджмент.



## KIRISH

Dunyo bozorida, xususan, AQSH, Yevropa Ittifoqi davlatlari, Xitoy, Yaponiya va Janubiy Koreyada xizmatlar sohasini rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash, mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyot darajasini oshirish omili sifatida tadqiq etilmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda mamlakatlar yalpi ichki mahsuloti hajmida xizmatlar ko'rsatish sohasining ulushi o'rta hisobda 64 foizni, xizmat ko'rsatishda band bo'lganlar jami iqtisodiyotda band bo'lganlarning 50 foizini tashkil etgan. Shuning uchun jahon iqtisodiyotini rivojlantirishda xizmatlar sohasi ustuvorlikka ega bo'lib, ushbu sohani boshqarish uslubiyotini takomillashtirishni talab etadi.

Jahon amaliyotida xizmatlar sohasini rivojlantirishda innovatsiya elementiga alohida ahamiyat qaratilishi natijasida narx va sifat ustunligiga ega innovatsion xizmatlar ko'lamini oshirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish, bunda aholining arzon, sifatli hamda har tomonlama qulay xizmat turlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish asosida 2-3 baravar yuqori qo'shilgan qiymatni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda innovatsiyalarni yangi xizmat turlarini yaratishga ta'siri o'rganilgan bo'lsa-da, ammo ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'lamini va natijadorligini oshirish asosida yangi ilmiy ishlanmalarni yaratish va yangi xizmat turlarini joriy etish muammolari ilmiy jihatdan yetarlicha tadqiq etilmagan.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning hozirgi bosqichida raqobatdosh innovatsion mahsulotlar va xizmatlarning yangi turlarini yaratishni tashkil etish va samarali boshqarish ustuvor vazifalardan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun, mavjud ilmiy-innovatsion salohiyatdan to'liq foydalanish, ilg'or ilm-fan yutuqlari va istiqbolli innovatsion texnologiyalar asosida yangi ishlab chiqarish tuzilmalari va xizmatlar turlarini yaratish zarur. Tahlillarimizga ko'ra, hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan jami 528 mingdan ziyod korxonalarining atiga 0,7 foizi (3900 tasi) o'tgan yili innovatsion mahsulotlar ishlab chiqargan. Yalpi ichki mahsulotning 5,2 foizini innovatsion mahsulotlar tashkil etmoqda. Biroq ishlab chiqarilayotgan innovatsion mahsulotlarning 2,4 foizini yuqori texnologik sanoat ishlab chiqarish tashkil etmoqda, xolos. Shu jihatdan, xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish yuzasidan ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish, bunda innovatsion xizmat turlarini yaratish konsepsiyasiga asoslangan holda ushbu sohani boshqarish va rivojlantirishga nisbatan uslubiy yondashuvlarni nazariy jihatdan asoslash va amaliy mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 6-iyulda "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-165-son va 2021-yil 30-sentabrda "Xizmatlar sohasini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5113-son qarorlari, 2021-yil 30-sentabrda „Xizmatlar sohasini qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6318-son Farmonlari hamda hamda 2022-yil 6-iyuldagi "2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-307-son qarorlari, shuningdek, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish va innovatsion xizmatlar turlarini joriy etish bilan bog'liq bo'lgan muammolar D.Archibudji, P.Druker, A.Rumyanseva, Dj.Forrester, B.Lundval, N.Mazur, R.Nelson, V.Ivanov, Y.Shumpeter, R.Fatxuddinov, N.Rozenberg A.Porshneva, K.Puznya, G.Mensh va boshqa xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan. Xizmatlar sohasini innovatsion boshqarishning umumiy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari S.S.G'ulomov, Sh.N.Zaynutdinov, A.Sh.Bekmurodov, B.B.Berkinov, N.Q.Yo'ldoshev, M.A.Mahkamova, R.I.Nurimbetov, A.F.Rasulov, A.M.Qodirov, Sh.I.Otajonov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida o'rganilgan. ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Bundantashqari M.Pardayev, H.Musayev, I.Ochilov, N.Abdusalomova, B.Navruz-Zoda, O.Kim, A.Norchayev, B.Mirbabayev, S.Ro'ziyev, N.Raximova, A.Saidov, B.Safarov, N.Tuxliyev, T.Abdullayeva, B.To'rayev, O.Xamidov kabi o'zbek olimlarining ilmiy ishlari ham e'tiborga loyiq bo'lib, ular O'zbekistonda xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish, takomillashtirish muammolari nazariyasi va amaliyoti masalalariga keng e'tibor berishgan. Bunda hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish omillari, boshqarish masalalari o'rganilgan.

Ushbu ilmiy izlanishlar ilmiy-uslubiy manba bo'lsa-da, hozirgi kunda xizmatlar sohasini innovatsion boshqarish samaradorligini oshirish, bunda innovatsion menejmentni joriy etish orqali innovatsion xizmat ko'rsatish subyektlari faoliyatini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmini ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan, tizimli yondashuv asosida yaxlit mustaqil tadqiqot ishi obyekt sifatida o'rganilmagan. Mazkur holat ushbu yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligini taqozo etadi hamda tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.



## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Innovatsion xizmatlarni rivojlantirishni bugungi kunda iqtisodiy o'sishning muhim omili va iste'molchi uchun raqobatchilik kurashining asosiy vositasi bo'lib bormoqda hamda innovatsiyalar sohasiga jamiyat borgan sari ko'proq moddiy va inson resuslarini jalb etmoqda.

"Innovatsiya" atamasi bugungi kunda juda keng qo'llanilishi uning mazmun-mohiyatini o'rganishga bo'lgan qiziqishlarni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababdan mazkur atamaning iqtisodiy mazmun-mohiyatini tadqiq etgan va ochib bergan ayrim iqtisodchi-olimlarning qarashlarini o'rganish muhim.

Jahon iqtisodiyotida innovatsion jarayonlarni boshqarish bo'yicha Y.Shumpeter, P.Druker, R.Nelson, D.Arjibudji, R.Fatxuddinov, J.Xovels, D.Bell, B.Lundval, N.Mazur, V.Ivanov, N.Rozenberg, A.Porshneva, K.Puznya, A.Rumyanseva va boshqa olimlar tadqiqot olib borganlar.

O'zbekistonda innovatsion xizmatlar bozorini boshqarish va rivojlantirish bo'yicha A.Sh.Bekmurodov, B.Berkinov, Sh.N.Zaynutdinov, M.A.Mahkamova, I.Q.Mirzayev, A.F.Rasulov, A.M.Qodirov, Sh.Otajonov, A.Umarov va boshqa olimlar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

I. Shumpeterning ta'kidlashicha, "depressiya davrida yuz beradigan jarayonlar ishonchsizlik va tartibsizliklarni ifoda etadi, bularni biz yangi muvozanatni izlash, umumiy vaziyatlarning nisbatan jadal va jiddiy o'zgarishlariga moslashuv sifatida tushunamiz".

Xususan, rus iqtisodchi-olimi I.T. Balabanov fikriga ko'ra: "innovatsiya – nazorat, hisob, rejalashtirish usuli, tahlilga qabul qilishning yangi shakllarini qamrab olgan holda yangi texnika va texnologiyaga, ishlab chiqarish, mehnat, xizmat ko'rsatish, boshqarishni tashkil etishning yangi shakliga kapitalni kiritishdan olingan moddiylashgan natijani o'zida namoyon etadi". Shuningdek, A.B. Borisov innovatsiyalarni quyidagicha ta'riflaydi: "innovatsiya texnologiyalarning yangi turlarini ishlab chiqish, yaratish va tarqatish, yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga qaratilgan ijoiy faoliyat natijasini anglatadi". V.G.Medinskiy olib borgan izlanishlari asosida quyidagi xulosaga kelgan: "innovatsiya sifatida olib borilgan ilmiy-tadqiqot yoki avvalgiga o'xshash turidan sifat jihatdan farq qiluvchi yangisining yaratilishi natijasida ishlab chiqarishga joriy etilgan obyekt tushuniladi".

R.A. Fatxutdinov esa "innovatsiya – obyektning boshqarishni o'zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik, ilmiy-texnikaviy va boshqa turdagi samarani olish maqsadida yangilikni joriy etishning yakuniy natijasi", deb baholaydi. Shunga o'xshash ta'rifni V.L.Popov tomonidan ham berilgan bo'lib, unga ko'ra: "Innovatsiya – bozorda sotiladigan yangi turdagi yoki takomillashgan mahsulotning, amaliyotda foydalaniladigan yangi yoki takomillashgan texnologik jarayonning amalga oshirilishini hosil qiluvchi innovatsiya faoliyatining yakuniy natijasi" deyilgan. O'zbekistonlik iqtisodchi-olimlar ham "innovatsiya" atamasining iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish bo'yicha katta izlanishlar olib borishgan va o'zlarining zamonaviy talqindagi ta'riflarini ishlab chiqqanlar. Shular jumlasida iqtisodchi-olimlar R.I.Gimush, F. M. Matmurodovlar tomonidan innovatsiya deganda "yangilik va yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi. Bu yangilik zamirida yangi tartibni, yangi odatni, yangi uslubni, kashfiyotni tushunish lozim", deya ta'rif berilgan. B.E.Toshmurodova, N.Jiyanovalar fikriga ko'ra: "innovatsiya tushunchasi o'z ichiga faqat texnik izlanishlarni olmasdan, balki korxonada ish usulidagi barcha yaxshi o'zgarishlarni (yangi xizmatlar, pastroq narxlar belgilash va boshqa mijozlar uchun qulay sharoitlar yaratish) oladi".

Tabiiyki, bunda ishlab chiqarish kuchlarining ushbu qismini maqsadli boshqarish va ulardan samarali foydalanish masalasi yuzaga keladi. Shu bilan birga, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt innovatsion salohiyatining jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashdagi roli ham o'zgaradi.

Shu jihatdan, bugungi kunda faqat innovatsion, aynan ilmiy, yuksak texnologiyali, malakali ishchi kuchida ro'yobga chiqqan bilimlarga asoslangan iqtisodiyotgina raqobatbardosh bo'la olishi mumkin.

Tahlillarga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar yalpi ichki mahsulotining tarkibida ko'rsatilganidek, xizmat ko'rsatish sohasining ulushi 50,0 foizdan oshadi. Jahon bankining hisob-kitoblariga ko'ra, xizmat daromadlari jahon yalpi ichki mahsulotining taxminan 70 foizini tashkil etadi. Xizmat ko'rsatish sohasida yetakchilik qilayotgan mamlakatlar orasida bu ko'rsatkich Luksemburgda – 88,3 foiz, Kiprda – 87,4 foiz, Maltada – 85,5 foiz, Daniyada – 76,3 foiz, Ispaniyada – 74,8 foiz, Buyuk Britaniyada – 79,6 foiz, Amerika Qo'shma Shtatlarida esa 77,6 foizni tashkil etadi.

I.Shumpeterning so'zlariga ko'ra: "Ko'p narsa shunday "ikkinchi to'lqin" cho'qqisida, hech qanday yangiliksiz yoki real harakatlantiruvchi kuch tomondan to'g'ridan to'g'ri ichki turtkisiz paydo bo'ladi".

Ko'rinib turibdiki, innovatsion faoliyatning tashkiliy-iqtisodiy tarkibiy qismi, shu jumladan innovatsion xizmatlarni boshqarish aynan u texnika va texnologiyalarning zamonaviy turlarini iqtisodiyot tarmoq va sohalari qo'llashga oid asosiy harakatlanuvchi kuch hisoblanadi. Innovatsion faoliyat bundan tashqari tashqari yangi mahsulotlar va texnologiyalar yaratish sohasida ham innovatsion siyosatni samarali o'tkazishning negizi hisoblanadi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirish masalalarini xorijlik iqtisodchi olim P.Druker tomonidan tadqiq etilgan. Bunda olim tomonidan yalpi ichki mahsulotda xizmatlarning yuqori salmoqqa ega bo'lishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, xizmatlar bozorini rivojlantirishning ilmiy-nazariy va metodologik masalalari MDH



iqtisodchi olimlari G.L.Azoyev va A.P.Chelenkovlar tomonidan ham tadqiq etilgan. MDH olimlaridan N.N.Pankratevaning ta'rifiga ko'ra xizmatlar sohasi "jismoniy shaxslar, tadbirkorlar, korxonalar tomonidan taqdim qilinadigan turli xil xizmatlar majmuidir".

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasini innovatsion rivojlantirishning muhim elementi – yangi xizmat turlarini yaratishga qaratilgan ilmiy ishlanmalarni yaratishdan iboratdir. Tahlillarimizga ko'ra, 2018-2023-yillarda ilm-fan va innovatsion faoliyatga oid jami 100 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat – 2 ta Qonun, 8 ta Prezident Farmoni va 32 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 45 ta qarori va 12 ta farmoyishi qabul qilindi. Natijada sohada raqobat, manfaatdorlik va javobgarlik muhiti shakllandi.

Jahon mamlakatlarining innovatsion rivojlanish tendensiyalarini belgilab beradigan Global innovatsion indeks reytingida (Indeks) 2022-yilda o'tgan yilga nisbatan 4 ta pog'onaga ko'tarilib, 132 ta davlat orasida 82-o'rinni egalladi. 2015-yilga nisbatan O'zbekiston GII'da 40 pog'onaga ko'tarildi. 2023-yilda ham shu o'rin qayd etildi.

Ma'lumki, indeksda mamlakatimiz ilk bor 2015-yilda kiritilib, 141 ta mamlakat ichida 122-o'rinni egallagan. 2021-yilda respublikamiz 132 ta dunyo mamlakatlari ichida 86-o'ringa (+36) ko'tarilgan.

Bu yil Indeksda 4 ta daromad guruhi bo'yicha O'zbekiston quyi o'rta daromadli 36 ta davlat ichida 10-o'rinni egalladi. O'zbekiston ilk bor mintaqalar bo'yicha innovatsion iqtisodiyotlar tasnifida Markaziy va Janubiy osiyo mamlakatlari orasida 3-o'rinni egalladi (Hindiston – 1-o'rin, Eron – 2-o'rin).

2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi doirasida iqtisodiyot tarmoqlari tomonidan jami 441 ta loyihadan 301 ta loyihani amalga oshirish ishlari boshlangan, 959,1 mlrd. so'mlik 53 ta loyihalar to'liq yakuniga yetkazilgan.

2022-2023-yillarda oliy ta'lim muassasalari tomonidan yangi ishlanma va texnologiyalarni joriy etish bo'yicha 58 ta oliy ta'lim muassasalarida 217,8 mlrd so'mlik 377 ta loyihani amalga oshirish bo'yicha nazorat-reja grafiklari tasdiqlandi.

Shuningdek, 2022-yilda 16 ta yangi innovatsion (spin-off) korxonalar to'liq ishga tushirildi. Mazkur korxonalar faoliyati doirasida 260 ga yaqin ishchi o'rinlari yaratilgan, 28 turdagi yangi mahsulot sotilimoqda va 39 turdagi xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Yangi infratuzilma obyektlarini joriy qilish va soha kadrlarni yetishtirish bo'yicha ishlar faol olib borilmoqda. Yurtimiz zo'r g'ayrat bilan jahon ilmiy hamjamiyatiga o'zini namoyon etmoqda, xorijiy hamkorlarimiz, xalqaro tashkilotlar va moliyaviy rivojlanish institutlari bilan hamkorlik yo'nalishlarini doimiy ravishda kengaytirib, mustahkamlab bormoqdamiz. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi mexanizmi joriy etildi:

- Vazirlar Mahkamasining "Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning normativ-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 9-martdagi 133-son qarori qabul qilindi;
- 2019-yildan yangi tartib sifatida, yakuniy mahsulot va moliyalashtirish hajmi aniq bo'lgan tematik loyihalarga davlat buyurtmasi muntazam ravishda e'lon qilinmoqda;
- natijada raqobat muhiti shakllandi, doimiy grant mablag'larini olish imkoni yaratildi, bir loyihani moliyalashtirish 3,5 barobarga oshdi hamda mablag'larning kamida 40 foizi moddiy-texnik bazaga, zarur asbob-uskunalar xarid qilishga yo'naltirilmoqda;
- ilmiy loyihalarni ekspertiza qilish uchun vazirlik huzurida 20 ta fan yo'nalishlari bo'yicha 460 ta malakali olim va mutaxassislardan iborat yangi ilmiy-texnik kengashlar tashkil qilindi. Natijada, loyihalarni baholashda ilmiy jamoatchilikni keng qamrovli ishtiroki ta'minlandi.

2020-yilda ilmiy faoliyatga oid davlat dasturlari doirasida yillik moliyalashtirish hajmi 425,0 mlrd. so'mlik 1313 ta loyihalar bajarildi, shu jumladan 74,4 mlrd. so'mlik 334 ta fundamental loyihalar, 289,9 mlrd. so'mlik 845 ta amaliy loyihalar, 41,3 mlrd. so'mlik 81 ta innovatsion loyihalar, 12,5 mlrd. so'mlik 28 ta maqsadli loyihalar, 6,9 mlrd. so'mlik 25 ta xalqaro qo'shma loyihalarning bajarilishi ta'minlandi.

2021-yilda ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq umumiy qiymati 116,8 mlrd. so'mlik 218 ta loyihalar moliyalashtirishga tavsiya etildi.

2022-yilda Germaniya, Turkiya, Rossiya va Belarus davlatlari bilan umumiy qiymati 6,9 mlrd. so'mlik 25 ta xalqaro qo'shma ilmiy loyihalar yakunlandi. 2021-yildan boshlab Turkiya, Xitoy va Hindiston davlatlari bilan umumiy qiymati 50,3 mlrd so'mlik 47 ta xalqaro qo'shma ilmiy loyihalarning bajarilishi boshlandi.

Energetika vazirligi, Davlat geologiya va mineral resurslar qo'mitasi va Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining jami 15,4 mlrd. so'm mablag'lari hisobidan ilmiy loyihalarni teng sheriklikda moliyalashtirish yuzasidan tanlovlar e'lon qilindi. 2.3-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, ta'lim sohasida tashkilotlarning soni deyarli uch barobar kam bo'lishiga qaramay, bu tashkilotlar tadqiqot faoliyatini olib borayotgan ikkinchi yirik yo'nalish



bo'lishiga to'sqinlik qilmaydi. "San'at, ko'ngilochar va dam olish" va "ishlab chiqarish sanoati" sohalarda tashkilotlar soni yanada kam: 2021-yilda bu sohalarda tegishli ravishda 24 ta va 19 ta tashkilot faoliyat yuritgan. Biroq ushbu sohaning texnologik o'sishi past ekani haqida gapirish juda erta, chunki kelajakda bu ishlamalardan foydalanilishi ehtimoli bor. Odatda yuqori texnologiyaardan farqli ravishda uncha yuqori bo'lmagan texnologiyalarni qo'llash osonroq kechadi, negaki, yuqori texnologiyalar uchun texnologik jihatdan murakkab infratuzilma talab etiladi.

Jadval yoki diagramma Xizmatlar sohasida innovatsion tadbirkorlik faoliyati katta risklar bilan bog'liq bo'lsada, biroq yangi xizmat turini bozorda munosib o'rin egallashi bilan olinadigan daromadni ko'p hollarda besh baravargacha ortiq bo'lishini ko'rishimiz mumkin.

Biroq sohani rivojlantirish davlat tomonidan qo'shimcha qo'llab-quvvatlovlarsiz juda qiyin kechadi. Chunki, katta tavakkalchilikka asoslangan yangi biznesga ham doim ham tadbirkorlar qiziqish bildirishmaydi.

Shuningdek, raqobatbardosh innovatsion xizmat turini kelgusida muvaffaqiyatli bozorda o'rin egallashi uchun intellektual mulk obyektlarini himoyalash tizimini rivojlantirish talab etiladi. Chunki huquqiy jihatdan himoyalangan texnologiya asosida ishlab chiqarilgan/ko'rsatilgan xizmat ham egalik huquqi asosidagi manfaatni paydo bo'lishiga hamda ishonchli marketing strategiyasini qo'llashga imkon beradi. Tahlillarimizga ko'ra, 2021-yilning o'zida 12 248 ta intellektual mulk obyektlariga talabnomalar berilgan 9984 ta ro'yxatga olingan (1.1-jadval).

### 1.1-jadval: O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk obyektlariga talabnoma berish va ro'yxatga olish to'g'risida MA'LUMOT (2019-2021-yy.)

№	Intellektual mulk obyektlari turlari	Talabnoma berish			Ro'yxatga olish		
		2019-yil	2020-yil	2021-yil	2019-yil	2020-yil	2021-yil
1	Ixtiro	543	588	665	378	278	298
2	Foydali model	277	350	401	110	109	199
3	Sanoat namunasi	229	149	244	169	106	148
4	Tovar belgisi	4319	4125	6249	2205	1459	4849
5	EHM uchun dastur	1776	2564	4355	1541	2356	4199
6	Ma'lumotlar bazasi	23	21	140	17	21	92
7	Seleksiya yutuqlari	77	120	85	36	55	66
8	Tovar kelib chiqqan joy nomlari	–	30	109	–	–	133
<b>Jami</b>		<b>7 244</b>	<b>7 947</b>	<b>12 248</b>	<b>4 456</b>	<b>4 384</b>	<b>9 984</b>

Yangi ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish asosida innovatsiyalar yaratish ekotizimi ham ravojlanib bormoqda. Bunda davlat tomonidan alohida tijoratlashtirish forumlarini o'tkazish va unda muvaffaqiyatli ishtirok etgan loyihalarni davlat budjetidan moliyalashtirish va yangi turdagi innovatsion hamda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar (xizmatlar) yaratish mexanizmi joriy etilgan

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Bizning fikrimizcha, xizmatlar sohasiga oid innovatsiyalarni bozorda joriy etish ushbu yo'nalishda chuqur yangi bilimlarni yaratishni talab etadi. Tadqiqot ishi shuni ko'rsatadiki, innovatsion xizmatlar ko'rsatish sohasida yangi bilimlar asosida innovatsiyalar yaratish kadrlar tayyorlash jarayonidan tortib yangi bilim, ko'nikma va malakalarni yaratishning o'zaro aloqadarligini ta'minlab berishi zarur. Bunda yangi bilimlar asosida innovatsion xizmatlar yaratishning asosiy shartlaridan biri sifatida ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasini yaratish, doimiy yangilab borish va takomillashtirish, sohaga oid davlat siyosatini amalga oshirishni axborot bilan ta'minlash bo'yicha asoslangan taklif va tavsiyalarni tayyorlash maqsadga muvofiq.

Innovatsion xizmatlar yaratish sohalarda mavjud muammolarni va kelajakda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xavflarni hal etish, uzoq istiqboldagi rejalarga erishish, vazirlikning ustuvor faoliyat yo'nalishlarini rivojlantirish yuzasidan mahalliy va xorijiy mutaxassislarni jalb etgan holda, qisqa muddatli prognozlashtirish, tadqiqotlarni hamda "Forsayt" (Foresight – futures studies) tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish o'zining tezkor samarasini beradi.



Shuningdek, ilmmetrik (Scientometrics) tadqiqotlarni amalga oshirish, tadqiqotlar natijasida tahliliy materiallarni tayyorlash, ilmmetrik tadqiqotlarni rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajriba asosida takliflarni tayyorlash hamda tadqiqot yo'nalishlarini to'g'ri belgilash asosida yangi xizmat turlarini yaratishga oid ilmiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash ham ekotizimni shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning fikrimizcha, innovatsion xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish mexanizmi innovatsion xizmat turlarini yaratish infratuzilmasi, tizimni boshqarish elementlari va funksiyalari, tartib va qoidalarni o'z ichiga olgan vositalar va jarayonlar majmuidan iborat bo'lishi lozim.

Innovatsion xizmat ko'rsatish sohasini boshqarish mexanizmi asosida mazkur jarayonlarni alohida model asosida tizimli ravishda tashkil etish esa uning samaradorligini belgilab beradi

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Показатели мирового развития. Экономика и рост. World Bank. [Электронный ресурс]. 19.06.2023).
2. Archibudgi D., Howells J., and Michie J. (Ed.) Innovation policy in a global economy. –Cambridge, 2019; Bell, D.G. Knowledge markets and communities: two approaches for supporting product development teams. Invited talk at the Fordham Graduate School of Business CEUG Consortium. / D.G. Bell; 2011. –New York, NY.; Drucker P. Innovation and entrepreneurs: Practice and principles / P. Drucker. L.: Pan Books, 1986, p. 55.
3. Otajonov Sh.I. Innovatsiya faoliyati infratuzilmasini boshqarish samaradorligini oshirish. -T.: "Innovatsion texnologiyalar", 2018. – B.178.
4. Ochilov I. Bozor munosabatlari sharoitida xizmatlarning turlari va ularning tasnifi. Xizmat ko'rsatish, servis va turizm sohalarni rivojlantirish: muammolar va ularning yechimlari (monografiya) – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2008.
5. Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент. –Т.: Академия, 2006. –С.267; Зайнутдинов Ш.Н. Теория пять "И" или новая система факторов процветания государства. LAP LAMBERT Academic Publishing RU, 2018. –С. 49
6. Шумпетер Й. Теория экономического развития. – М.: Прогресс, 1982.
7. Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. –Спб.: Питер, 2001. –С. 41. 4 Борисов А.Б. Большой экономический словарь. – М.: Книжный мир, 2000. – С. 185. 5 Медынский В.Г. Инновационный менеджмент. – М.: ИНФРА-М, 2002. – С. 28.
8. Роль инновационного потенциала в развитии предприятий оборонно-промышленного комплекса. <http://elibrary.ru>
9. Медынский В.Г. Интернет ресурс. <https://rgsbm.uz/uploads/docs/3244120ca612727>.
10. Фатхутдинов Р.А. Инновационный менеджмент. – Спб.: Питер, 2004. – С. 19.
11. Попов В.Л. Управление инновационными проектами. Учебное пособие. – С.: ИНФРА-М, 2009. – С.11. (С. 337).
12. Gimush R. I., Matmurodov F. M. Innovatsion menejment: Iqtisodiyot oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'l. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. – B. 10. (144 b.)
13. Innovation Policy A Guide for Developing Countries. The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. 1818 H Street, NW, 2010. – P.28. (P. 436.).
14. Показатели мирового развития. Экономика и рост. World Bank. [Электронный ресурс]. URL: <https://data.worldbank.org/indicator>.
15. Шумпетер Й. Теория экономического развития. М.: Изд-во Прогресс, 1982-79 с.
16. Друккер П.Ф. Классические работы по менеджменту. Пер. с англ. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2008. – 220 с.
17. Innovatsion rivojlanish vazirligi ma'lumotlari, 2022-yil.
18. kizi Djurayeva D. D. et al. Scientific and methodological aspects of the formation of an innovative set of services //Scientific reports of Bukhara State University. – 2021. – Т. 5. – №. 1. – С. 227-238.



# MINTAQLAR INNOVATSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI



**J. A. Ismatullayev**

Qarshi Davlat Universiteti tayanch doktoranti

**D. X. O'rinov**

Qarshi Davlat Universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mintaqalarda innovatsion salohiyatini baholashdagi mavjud holat tahlili va uni takomillash-tirish yuzasidan bir qator usullar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** mintaqa, innovatsiya, innovatsion salohiyat, indeksli usul, reyting baholash usuli, matritsa usuli.

**Abstract:** This article presents an analysis of the current state of the regions' innovative potential and a number of methods for improving it.

**Key words:** region, innovation, innovative potential, index method, rating method of assessment, matrix method.

**Аннотация:** В данной статье представлен анализ современного состояния инновационного потенциала регионов и ряд методов его улучшения.

**Ключевые слова:** регион, инновации, инновационный потенциал, индексный метод, рейтинговый метод оценки, матричный метод.

## KIRISH

Xalqaro globallashuv jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida mamalakatlar hududlarini innovatsion salohiyatini rivojlantirishning ilmiy ta'minoti, shu jumladan fan sohalarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini iqtisodiyot tarmoqlarida keng foydalanish masalalarining ahamiyati tobora ortib bormoqda. Global innovatsiya indeksining 2023-yildagi natijalariga ko'ra, Shvetsariya 67,6 ball bilan birinchi o'rinni, Shvetsiya 64,2 ball bilan ikkinchi o'rinni, AQSH 62,4 ball bilan uchinchi o'rinni egallab turibdi [4]. Jahonda globallashuv jarayoni chuqurlashayotgan, ikkinchi tomondan jahon bozorlarida raqobat darajasi oshib borishi hududlar iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda yangi yondashuvlarni qo'llashni taqozo qilmoqda.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsion salohiyatni baholashga turlicha yondashuvlar mavjud. Mintaqaning innovatsion salohiyatini uning har bir tarkibiy qismini baholash orqali tahlil qilish metodologiyasi baholovchining "innovatsion salohiyat" tushunchasini talqin qilishiga bog'liq. Innovatsion salohiyat innovatsion faoliyatning turli jihatlarini tavsiflovchi o'ziga xos ko'rsatkichlar tizimidan foydalanishni ham o'z ichiga oladi.

Shu sababli, innovatsion salohiyatni baholash va zamonaviy talablarga eng mos keladigan mintaqaviy iqtisodiyotni aniqlashning mavjud usullarini ko'rib chiqish muhimdir.

D.I.Kakurinning fikriga ko'ra innovatsion salohiyat tushunchasi innovatsion faoliyatning konseptual akslan-tiruvchi fenomeniga aylanib ulgurgan. Innovatsion salohiyat tushunchasi, uning mohiyatini talqin qilishdan oldin, avvalo, "innovatika", "innovatsion faoliyat" tushunchalarini tahlil qilish maqsadga muvofiqdir [1].

VC. Zausayev, S.P. Bystritskiy, N.Yu. Krivoruchkoning fikricha, innovatsion salohiyat ilmiy-texnik salohiyat bilan bir tekisda, lekin tijorat tarkibiy qismiga ega [2]. Ularning fikriga ko'ra, mintaqaning innovatsion salohiyatini har tomonlama baholash uchun besh guruhni tashkil etadigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalanish kerak:



- makroiqtisodiy (yalpi hududiy mahsulot, iqtisodiy faol aholi, aholi jon boshiga daromad, asosiy kapitalga investitsiyalar, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar soni.);
- infratuzilmaviy (kommunikatsiya va axborot texnologiyalaridan foydalanadigan tashkilotlar soni, sug'urta-kredit tashkilotlari, maxsus dasturlar va veb-saytlar soni, texnopolislar, texnoparklar, axborot-tahlil markazlarining mavjudligi);
- huquqiy (innovatsion faoliyatni tartibga soluvchi, innovatsion faoliyat subyektlariga soliq va boshqa imtiyozlar beruvchi qonunlar);
- kadrlar (doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar tayyorlaydigan tashkilotlar soni, ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar sohasida faoliyat yurituvchi xodimlar, doktorantlar soni);
- iqtisodiy (yangilik darajasi bo'yicha innovatsion mahsulotlar hajmi, tadqiqot va ishlanmalar uchun ichki joriy xarajatlar).

T.V. Pogodina statistik ko'rsatkichlar tizimidan foydalangan holda hududlarning innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini baholash uchun funksional modeldan <sup>[3]</sup> foydalanishni taklif qiladi, jumladan:

1. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun ichki xarajatlar YAİM yoki YAHMga nisbatan foiz sifatida;
2. Ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarida band bo'lganlarning umumiy xodimlar soniga nisbatan ulushi;
3. Ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar uchun asosiy vositalarning umumiy qiymatidagi ulushi;
4. Texnologik innovatsiyalar xarajatlari YAİM yoki YAHMga nisbatan foiz sifatida.

“Innovatsion salohiyat” tushunchasini ta'riflash yuzasidan ko'pgina nuqtayi nazarlar mavjud, ammo umumiy jihatdan olganda ular bir biriga zid emas.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishi doirasida birlamchi ma'lumotlar bazasini shakllantirish, hududning innovatsion salohiyatini baholash uchun ilmiy asoslangan xulosa va tavsiyalar ishlab chiqishda induksiya, deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil kabi usullardan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Hududlarning innovatsion salohiyati deb ko'plab omillar ta'sirida shakllanib boruvchi innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvatlash va tezlashtirish uchun qo'llanilayotgan sharoit va resurslarning muayyan uyg'unligi tushuniladi.

Innovatsion salohiyat ikki tarkibiy qism – ilmiy-texnik salohiyati va tadbirkorlik salohiyat yig'indisi sifatida gavdalanadi. Ilmiy-texnik salohiyat faqatgina innovatsion salohiyatning bir qismi bo'lib, u tizimning innovatsiyalarni yarata olish qobiliyatini tavsiflaydi. U resurslar yig'indisi hamda amalda ratsionalizatorlik takliflar, nou-xau va boshqalar uchun olingan patent, litsenziya, mualliflik guvohnomalari ko'rinishida ifodalanilishi mumkin bo'lgan ilmiy soha faoliyati natijalarini belgilab beradi.

Keng ma'noda iqtisodiy tizimning ilmiy-texnika salohiyati mazkur tizimning rivojlanish darajasini tavsiflovchi va imkoniyatlarni belgilab beruvchi resurslar soni va sifatiga hamda amaliyotda foydalanish (ishlab chiqarishga tatbiq etish)ga tayyorlangan g'oya va ishlanmalar fondining mavjudligiga bog'liq bo'lgan ilmiy-texnik imkoniyatlarning yig'indisi sifatida qarash mumkin.

Shuningdek, mintaqaning innovatsion salohiyatini ham shakllanish bosqichida, ham undan foydalanish bosqichida ko'rib chiqish lozim. Mazkur yondashuv innovatsion salohiyatni shakllantirish (resursli komponent) va undan foydalanish (natijaviy komponent) jarayonida olingan asosiy natijalarni aniqlashga imkon beradi. Demak, innovatsion salohiyatdan foydalanish natijasi turli xil yangiliklar (yangi texnologiyalar, yangi turdagi tovar va xizmatlar) bo'ladi.

Taklif etilayotgan uslubiyot innovatsion salohiyatni baholaydigan integrallashgan (umumlashgan) ko'rsatkichlarni hisoblashni ko'zda tutadi. Mintaqaning innovatsion salohiyat (resursli komponent)ni shakllantirish shart-sharoitlarini baholash uchun mintaqaning innovatsion salohiyatni shakllantirish bo'yicha umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni hisoblash taklif etiladi, undan foydalanish darajasi (natijaviy komponent)ni baholash uchun esa – mintaqaning innovatsion salohiyatdan foydalanish bo'yicha umumlashtiruvchi ko'rsatkichlarni hisoblash taklif etiladi.



Mintaqaning innovatsion salohiyati bir kompleksda mintaqalarning innovatsion rivojlanishi va raqobatbardoshlik holatini aks ettiruvchi va mintaqalarning innovatsion salohiyati rivojlanishining eng muhim shart va omillarini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanishi lozim. Mintaqaning innovatsion salohiyatiga nisbatan bunday yondoshuv uni tavsiflovchi ko'rsatkichlarni aniqlashga imkon beradi.

Mintaqalarning innovatsion salohiyatni o'lchash reyting usul asosida taqqoslanadigan obyektlarning tartibli nisbatini aniqlashni nazarda tutadi. Innovatsion rivojlanishining turli xil tavsiflarini o'lchash uchun ko'rsatkichlar to'plami aniq tadqiqot maqsadi va vazifalari, ko'rsatkichlarga erish uchun sarflangan transaksiya xarajatlariga qarab belgilanadi, bunda mintaqalar bo'yicha mavjud bo'lgan axborot bazasidan foydalanish imkoniyatlari hisobga olinadi.

Mintaqaning innovatsion salohiyatni aniqlashga nisbatan taklif etilayotgan metodik yondoshuv uni baholash bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan ishlarni o'z ichiga olgan o'zaro bog'langan xususiy metodikalar to'plamini o'z ichiga oladi. Bular quyidagilar: tadqiqotning axborot bazasini loyihalashtirish va shakllantirish; mintaqalarning innovatsion salohiyatini chuqur sifatli tavsiflarini aks ettiruvchi yirik empirik indikatorlarni tuzish; tuzilgan empirik indikatorlar qiymati bo'yicha mintaqalarni ranjirovka qilish; mintaqalarni empirik indikatorlar yig'indisi bo'yicha tipologiyalashtirish; iqtisodiy subyektlarning innovatsion salohiyati bo'yicha reytingini tuzish.

Mintaqa uchun har bir indikator bo'yicha mamlakat bo'yicha o'rtacha qiymat hisoblangan etalon darajasiga qo'shish yo'li bilan standartlashgan holda baholash yordamida hisoblanadi. Barcha darajalarda ko'rsatkichning sonli qiymati mintaqaning o'rtacha respublika darajasiga nisbatan rivojlanish darajasini aks ettiradi.

Mazkur metodika tadqiqot maqsadlariga to'liq javob beradi, chunki mintaqaning raqobatbardoshligi va innovatsion salohiyatning rivojlanishi nisbiy tavsifga ega.

Shuni ta'kidlash kerakki, boshqa standartlashgan baholash bo'yicha metodikalar ham mavjud, masalan, qiymatlarni muayyan intervalga me'yorlashtirish (shkalashtirish) – global raqobatbardoshlik indeksini hisoblash uchun qo'llaniladi. Hozirgi kunda innovatsion salohiyatni aniq shakllantirish va undan foydalanish ko'rsatkichlardan mintaqaning innovatsion rivojlanish omili sifatida foydalanish mumkin.

Innovatsion salohiyatni baholash esa innovatsion siyosatni asoslash hamda amaldagi rivojlanish strategiya va dasturlarni ishlab chiqish va ularga tuzatishlar kiritish uchun dastak roli sifatida namoyon bo'ladi.

Mintaqaning innovatsion rivojlanishni baholashda qo'llanilayotgan ko'p sonli metodologik tadqiqotlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Indeksli usullar guruhi- innovatsion jarayonlarning sifat va miqdor tavsiflarini izohlab beruvchi o'zgaruvchi ko'rsatkichlarni baholashga asoslangan usullar kiradi. Mazkur guruhga kiradigan metodikalarning asosi amaliyotda o'zini yaxshi ko'rsatgan g'arb modellari hisoblanadi. Ularning orasida quyidagilarni keltirish mumkin: indeks The Boston Consulting Group; Global innovatsion indeksi (The Global Innovation Index).

Balli, reyting baholash usullari guruhi- balli (reyting) baholash usullarini o'z ichiga oladi. Mazkur guruhga kiradigan metodikalar mintaqaning innovatsion rivojlanish koeffitsiyentlari (vaznlari) va xususiy ko'rsatkichlarni aniqlashni o'z ichiga oladi. Misol uchun, mintaqalar raqobatbardoshlik modeli.

Matritsali usullar guruhi- asosini matritsali usullar tashkil etadi. Mazkur usullar mintaqalarning iqtisodiy faoliyat turlari doirasida innovatsion rivojlanish unsurlari o'rtasida nisbatlarni miqdoriy baholashga asoslangan. Misol uchun mintaqalarning innovatsion salohiyatini baholash metodikasi.

Oxirgi ikki o'n yillik ichida hudud (mintaqa, korxonalar, butun mamlakat)ning ilmiy-texnik salohiyatini tadqiq etish bo'yicha ko'plab metodikalar paydo bo'ldi.

Ushbu ishlanmalar orasida quyidagilarni keltirish mumkin: mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini integral baholash metodikasi; mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini kompleks baholash metodikasi; bilimlar indeksini hisoblash metodikasi; yig'ma innovatsion indeksini hisoblash metodikasi; hududlarning innovatsion faolligini tarkibiy tahlil qilish metodikasi; hududlarning innovatsion faolligini regression tahlil qilish metodikasi; mintaqaning innovatsion salohiyatini omilli tahlil qilish metodikasi; mintaqalarni klasterlashtirish metodikasi va innovatsion tizimning rivojlanish ko'rsatkichlari (tadqiqot va ishlanmalar hamda YAHMga ichki xarajalarning nisbati; YAHMda uzoq xorij davlatlarga eksport qilishning ulushi; iqtisodiyotda umumiy band bo'lganlar sonida tadqiqot va ishlanmalarda band bo'lgan xodimlarning ulushi; 1 mln. aholiga to'g'ri keladigan berilgan patent va mualliflik guvohnomalar soni; o'rtacha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAHM); mintaqalarni ularning innovatsion rivojlanish darajasi bo'yicha reyting baholash metodikasi (birinchi blok: mehnat unumdorligi; ishlab chiqarishning fond qaytimi; ishlab chiqarishning ekologiyalik darajasi, ikkinchi blok: bitta band bo'lgan xodimiga to'g'ri keladigan tadqiqot va ishlanmalarga ketgan xarajatlar; bitta band bo'lgan xodimiga to'g'ri keladigan texnologik innovatsiyalarga ketadigan xarajatlar; aholi jon boshiga to'g'ri keladigan innovatsion mahsulotni chiqarish)<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Ter-Grigor'janc A.A., Ushvickij M.L. Methodical approaches to assessment of innovative development of the region // Regional economy: theory and practice. 2013. №.10 (289). Pp. 49–56.



Endi mazkur metodikalarni batafsil ko'rib chiqamiz, ularning har birining ijobiy va salbiy jihatlarini quyida keltirilgan mezonlar kesimida keltiramiz: dastlabki ma'lumotlardan foydalana olish mumkinligi va ularning ob'ktivligi; metodikaning va uni hisoblash uslubi soddaligi; natijalarni ko'rsatib berish uslublari; mazmuni (salohiyatni tadqiq etish undan fodalana samaradorligi hamda amalga oshirish miqyosi) va rivojlanishi nuqtayi nazardan baholash imkoniyatlari (1-jadvalga qarang).

1-jadval: Hududlarning ilmiy-texnik salohiyatini tadqiq etish metodikalarning tavsifi<sup>2</sup>

Metodika	Mezonlar						
	Dastlabki ma'lumotlardan foydalana olish mumkinligi va ularning obyektivligi	Metodikaning va uni hisoblash uslubi soddaligi	Natijalarni ko'rsatib berish aniq-ravshanligi	Quyidagilar nuqtayi nazardan baholash imkoniyatlari			Mintaqa salohiyatini tadqiq etishga qo'llanish mumkinligi
				mazmuni	faoliyat ko'rsatishi	rivojlanishi	
Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini integral baholash metodikasi (Yaponiya)	±	+	+	+	-	-	±
Mamlakatning ilmiy-texnik salohiyatini kompleks baholash metodikasi (AQSH)	±	+	±	+	±	+	±
Bilimlar indeksini hisoblash metodikasi (Jahon banki)	+	+	+	+	-	+	+
Yig'ma innovatsion indeksini hisoblash metodikasi	±	+	+	+	-	+	+
Hududlarning innovatsion faolligi	±	+	+	+	±	-	±
Regression tahlili	±	-	±	+	±	-	+
Omili tahlil qilish	+	±	±	+	-	±	+
Mintaqalarni klaster tahlili	+	+	+	+	-	+	+
Mintaqalarni ularning innovatsion rivojlanganligi darajasi bo'yicha reyting baholash	+	+	+	+	-	+	+

Belgilar: "+" – metodika mazkur mezonni qanoatlantiradi; "-" – metodika mazkur mezonni qanoatlantirmaydi; "±" – metodika mazkur mezonni qisman qanoatlantiradi

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagilarni inobatga olib, integral ko'rsatkichlar asosida mintaqaning innovatsion salohiyatini taqqoslama baholash metodikasi ishlab chiqish taklif etiladi. Mazkur metodikani yaratishda amalda mavjud bo'lgan dastaklar va yuqorida ko'rib chiqilgan metodikalarni tahlil qilish yo'li bilan olingan ijobiy tajribalardan foydalanilgan va quyidagilar hisobga olingan:

- rasmiy statistika hisobotida keltirilgan indikatorlar tizimi orqali bevosita o'lchanadigan ko'rsatkichlar sifatida namoyon bo'lgan salohiyatni baholash (miqdoriy tahlil);
- sotsiologik tadqiqotlar tizimi orqali salohiyatni baholash (sifat tahlili), uning mohiyati tanlov usullardan foydalanishdan iborat;
- ham mintaqaning innovatsion salohiyatini rivojlantirish dinamikasini, ham ularning taqqoslama integral baholashni aks ettirish uchun tanlov indikatorlar tizimini zarurligi va yetariligi;
- mintaqaning innovatsion salohiyatni baholash bo'yicha grafik-tahliliy natijalarni ko'rsatib berish.

Quyida keltirilgan ko'rsatkichlar to'liq holda mintaqaning innovatsion rivojlanish ko'rsatkichini, mintaqaning salohiyatini, mintaqqa iqtisodiyotining o'sish zaxiralarini aniqlash hamda mintaqalarni innovatsion rivojlanishini rag'batlantirish uchun dastur, strategiya va tavsiyalarni ishlab chiqish uchun davlat siyosatining yo'nalishlarini belgilashga imkon beradi.

<sup>2</sup> Muallif tomonidan ilmiy adabiyotlarni umumlashtirish asosida tuzilgan



- mintaqaning innovatsion salohiyatini rivojlantirish maqsadi qo'yiladi va unga erishish yo'nalishlari aniqlanadi;
- mintaqaning innovatsion salohiyati samaradorligini baholanadi;
- mintaqalarning innovatsion salohiyatining omilliy tahlil qilinadi;
- mintaqqa hududining innovatsion salohiyati samaradorligi aniqlanadi;
- mintaqaning innovatsion rivojlanish strategiyasi ishlab chiqiladi;
- boshqaruv qarorlarni qabul qilish va amalga oshirish ta'minlanadi;

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кокурин, Д.И. Инновационная деятельность / Д.И. Кокурин. – М.: Экзамен, 2001. – С. 111.
2. Zausaev V.K., Bystrickij S.P., Krivoruchko N.Ju. Innovative capacity of east regions of Russia // ЕКО. 2005. №. 10. Pp. 40–52.
3. Т. В. Погодина, Н. М. Абдикеев, Ю. С. Богачев. Совершенствование системы показателей для оценки инновационной деятельности хозяйствующих субъектов с учетом соответствия стратегическим целям социально-экономического развития. Учет. Анализ. Аудит • т. 6, № 3'2019 Financial University, Moscow, Russia a <https://orcid.org/0000-0002-6619-4229> b <https://orcid.org/0000-0002-5999-0542>; c <https://orcid.org/0000-0002-8595-7674>.
4. <https://www.globalinnovationindex.org/Home>.
5. Nabiyev, D., & Erkayeva, G. (2021). Oliy ta'limda boshqaruv faoliyati mustaqilligining dolzarb masalalari // Iqtisodiyot va ta'lim, (6), 193-199.
6. Ismatullaev, J. (2021). Mintaqalarda pandemiya inqiroziga qarshi boshqaruvni qo'llash zarurati va xususiyatlari. Архив научных исследований.
7. Ismatullayev, J. (2022). Hududlar investitsion jozibadorligi tahlili // Iqtisodiyot va ta'lim, 23(4), 387-392.
8. Ж.А. Исматуллаев Социологическое исследование и оценка факторов, влияющих на инвестиционную привлекательность региона. Экономика и предпринимательство. Vol. 17, №. 7 560-567 стр.



# MILLIY QAYTA SUG'URTALOVCHILARNING XALQARO SUG'URTA BOZORIGA KIRIB BORISHI VA KUTILAYOTGAN XAVF- XATARLAR

**Jorabayev Jasur Abduraxmanovich**

“Kafolat sug'urta kompaniyasi” AJ Bosh direktor o'rinbosari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qayta sug'urta faoliyati va uning O'zbekiston sug'urta bozorida roli ko'rsatib berilgan. Shuningdek, milliy qayta sug'urta bozori tahlil qilinib, uni rivojlantirish bo'yicha xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** qayta sug'urta, to'lov qobiliyati, zaxiralar.

**Abstract:** This article describes reinsurance activity and its role in the insurance market of Uzbekistan. Also, the national reinsurance market is analyzed and conclusions, suggestions and recommendations are given for its development.

**Key words:** reinsurance, solvency, reserve.

**Аннотация:** В данной статье описывается перестраховочная деятельность и ее роль на страховом рынке Узбекистана. Также проанализирован национальный перестраховочный рынок и даны выводы, предложения и рекомендации по его развитию.

**Ключевые слова:** перестрахование, платежеспособность, резервы.

## KIRISH

Sug'urta iqtisodiyotning muhim bo'g'ini hisoblanadi. Iqtisodiy kategoriya sifatida sug'urta – bu iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, maqsadli mablag'larni shakllantirish va ulardan turli xil xavf-xatarlar ostida yetkazilgan zararni qoplash uchun foydalanish, shuningdek, ularning hayotidagi ayrim voqea-hodisalar sodir bo'lgan taqdirda fuqarolarga yordam ko'rsatish shakllari va usullari to'plamidir.

Dunyo davlatlarida ro'y berayotgan tabiiy va texnogen tusdagi turli hodisalar natijasida yuzaga kelgan zararlarning ma'lum bir qismi sug'urta kompaniyalari tomonidan qoplab berilmoqda, bu esa davlat budgetiga sezilarli darajada moliyaviy ko'mak bo'lmoqda.

Ko'plab mamlakatlarda vayron qiluvchi bo'ronlar va o'rmon yong'inlaridan tortib, halokatli suv toshqini va tornadologacha ro'y berayotgani, bunday tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanishi natijasida zararlilik darajasi ortib bormoqda. AQSHning Milliy Atrof-muhit ma'lumotlari markazi axborotiga ko'ra, so'nggi o'n yil ichida 152 ta tabiiy ofatlar sodir bo'lib, har bir hodisadan kamida 1 milliard dollardan ziyod zarar ko'rilgan. Bu so'nggi o'n yil ichida milliard dollarlik tabiiy ofatlarning umumiy qiymatini 1,1 trillion dollardan oshadi<sup>1</sup>. Bunday hodisalarni tez-tez bo'lishiga dunyoda bo'layotgan iqlim o'zgarishlari sabab qilib ko'rsatilmoqda.

Ohirgi yillarda O'zbekistonda birgina Orol dengizining qurib borishi, tuz zarralarini havo massasiga qo'shilishi iqlim o'zgarishiga katta ta'sir qilmoqda. Ayniqsa, Qoraqalpog'iston Respublikasi va qo'shni hududdagi aholiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Hukumat darajasida Orol dengizini tiklash bo'yicha keng ko'lamda ishlari olib borilmoqda.

Yuqoridagi iqlim o'zgarishlar natijasida yuzaga kelishi mumkin ofatlarni oldini olish maqsadida, Hukumat tomonidan ham keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Joriy yilning 1 mart kuni imzolangan “Sug'urta xizmatlari bozorini yanada rivojlantirishning kompleks chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 108-son qarorida “Yuridik shaxslarning ko'chmas mulkini tabiiy va texnogen ofatlardan majburiy sug'urta qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish” bo'yicha takliflarni kiritish masalasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligiga yuklatildi.

Qarordan ham ko'rish mumkinki, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tabiiy va texnogen hodisalarni oldini olish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 1966-yildagi jiddiy zilzilani boshidan o'tkazgan mamlakat sifatida, ushbu Prezident qarori to'g'ri yo'ldan ketilayotganidan bir dalolatdir.

1 <https://www.bankrate.com/insurance/homeowners-insurance/natural-disaster-costs>.



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 3

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja  
ISSN: 2992-8982



# Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

## Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

## Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 598 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 30-martda ruxsat etildi.

## Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

## Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati  
Axmedov Sayfullo Normatovich i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMIB birinchi prorektori  
Abduraxmanova Gulnora Kalendarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori  
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori  
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, f.f.d., TDIU professori  
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d. TDIU professori  
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori  
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori  
Musyeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori  
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., TAQU katta o'qituvchisi  
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti  
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti  
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi  
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i  
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

## Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti  
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti  
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.